

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi

Samarqand Davlat Chet tillar Instituti
Ingliz tili fonetika kafedrasi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**''INGLIZ TILIDA FRAZEOLGIK INTENSIFIKATORLARNING
FUNKSIONAL PRAGMATIK ASPEKTLARI''**

Bajardi: Shermatov Jasur
4.02 o'zb. guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: Yakubov F.

Bitiruv malakaviy ish himoyaga tavsiya etildi

« _____ » _____ 2013 y.

Bitiruv malakaviy ish baholandi

« _____ » _____ 2013



Samarqand - 2013

Mundarija

Kirish	2 - 8
--------------	-------

Bob I. Frazzeologik intensifikatorlarning kategorial va semiotik tasnifi

1.1.Frazzeologiyada intensivlik kategoriyasi.Frazzeologik intensivlikning aktuallashishi	8 - 12
1.2. Frazzeologik intensifikator (FI) frazzeologiyada intensivlik kategoriyasining namoyon qilish vositasi sifatida	12 - 14

BobII.FI xarakterstikasi va belgi funksiyalarining izohlanishi

2.1. FI xarakteristikasi va belgi funksiyalarini o'rganish muammolari.....	15 - 17
2.2. Frazzeologik abtraksiya va FI belgisining hosil bo'lish jarayoni.....	17 - 22
2.3. Turg'un birikmalilik FI ga o'tuvchi semiologik jarayonlar nisbiy tugallanganligining namoyon bo'lishi sifatida.....	22 - 26

Bob III. Kognitiv aspektda FI ning frazzeologik mazmuni

3.1.Frazzeologik intensivlovchi ma'noni ta'riflashdagi kamchiliklar.....	26 - 29
3.2.Frazzeologik intensifikatsiyalovchi ma'no tilda bilimlarni konseptual tashkil etish nuqtaiy – nazaridan qaralganda.....	29 - 33
3.3.FI ma'nolariga freym yondashuv.....	33 - 36
3.4.Metafora - FI ma'nosi hosil qilish usuli	36 - 44
Xulosa	44 - 46
Foydalanilgan adabiyotlar	46 - 56
Ilova I	56 - 59

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2012 yil 16 – 17 fevral kunlari Toshkentda o'tkazilgan “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi so'zlagan nutqida xorijiy tillarni o'rganishning ahamiyati haqida shunday fikrlarni aytgan edi:

“Biz ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat keng bilim va professional ko'nikmalarini egallashi, ayni paytda chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilish, bugungi dunyoda ro'y berayotgan barcha voqea – hodisalar, yangilik va o'zgarishlardan atroflicha xabardor bo'lish, jahondagi ulkan intellektual boylikni egallashning eng muhim sharti hisoblangan xorijiy tillarni ham chuqur o'rganishlari uchun katta ahamiyat bermoqdamiz.”

Xorijiy tillarni o'rganishga ana shunday e'tibor va imkoniyatlar berilayotgan ekan, biz yoshlar butun kuchimizni bilim olishga, chet tillarni o'rganishga safarbar etishimiz kerak. Buning uchun bizga barcha sharoit va imkoniyatlar yaratib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishimda men ingliz tilida intensivlikni ta'minlovchi vosita – frazeologik intensifikatorlarni tadqiq qilishni maqsad qilib qo'yganman.

Intensivlik (tezkorlik) kategoriyasi muammolari ko'p tadqiqotchilarning e'tiborini o'ziga jalb qilib kelgan. Bu muammo bo'yicha qilingan ko'pgina ishlarda intensivlik tushunchasi miqdor tushunchasini anglatishi bayon qilingan. E.A. Sheigalning yozishicha,“ intensivlik kategoriyasi sifatning miqdoriy bahosini anglatib, miqdor kategoriyasining qisman ko'rinishiga aylanadi. Nodiskret (noaniq) miqdor sifatida baholanadi.” [66:6]. I.I Turanskiy “ intensivlik kategoriyasi – semantik kategoriyadir. Uning asosida keng ma'noda miqdor tushunchasi yotadi. Intensivlik sifatning miqdor o'lchovi, eksplikativlik o'lchovi, kommunikatsiya mazmuni ko'rsatkichidir” deb yozadi.[68:7].

Bunday ta'rif Sh. Ballida boshlangan edi.Sh. Balli intensivlik deganda “...miqdor, kattalik, kuch ...

kategoriyalariga to'g'ri keladigan tushunchalarni anglatishini aytadi va "... miqdoriy farq yoki intensivlikdagi farq biz o'zimiz anglagan har qanday ob'ekt yoki o'z fikrlarimizni kiritadigan umumiy kategoriyalardan biridir" deb xulosa qiladi. [13:202-203].

Intensivlik terminini borliq predmetlari ob'ektiv belgilari miqdori xarakteristikasiga kiritilishi mumkin. Intensivlik haqida, masalan, o'sish, vazn, rang, o'lcham kabi real ob'ektlar tasnifi haqida gapirish mumkin. I.I. Turanskiy intensivlikning universal ta'rifini tan olgan holda ekspressiv stilistika nuqtaiy – nazaridan uni ekspressivlik miqdori sifatida ham aniqlaydi. "Ekspressivlik – matn belgisi, uning sifat xarakteristikasidir. Ekspressivlik bayonning neitral shakliga to'g'ri keladi, busiz ekspressiya mazmunsizdir. Kuchaytirilgan ifodalilik, boshqa tomondan, kuchayish jarayonini yoki intensifikatsiyani bildiradi. Intensifikatsiya kuchaytirish darajasi ko'rsatkichi sifatida (ekspressiv) nutq sifatining miqdor xarakteristikasi, gapning predmet mantiqiy ekspressiv ifodasining miqdoriy aks etishidir." [68 :15].

E.N. Sergeev esa ekspressivlikni intensivlikning ma'lum darajasini anglatish qobiliyati deb tushunishni taklif qiladi. [78]. V.I. Bolotov ham xuddi shunday yondashuvni quvvatlab, ekspressivlik til belgisi sifatida intensivlikni predmet-mantiqiy yoki stilistik interpretatsiyasi sifatida ifodalashini aytadi. [25]. E.M. Galkina – Fedoruk "Ekspressiya aytilgan fikrning ifodaliligini, ta'sirini, ta'sir qiluvchi kuchning kuchayishini bildirishi" ni qayd etadi. [30:107]. I.V. Arnold quyidagicha yozadi: " Ekspressivlik deganda biz fikrni kuchaytirilgan intensivlik bilan ifodalaydigan matn yoki yoki matn qismini tushunamiz." [3 :15].

Ko'rganimizdek ekspressivlik va intensivlik o'rtasidagi munosabat "kuchayish" tushunchasi bilan aniqlanadi. Turanskiyning fikriga ko'ra, intensivlik ekspressivlikni tashkil qiluvchi kategoriyalardan biri sifatida eng avvalo uning intensifikatsiyasi bilan bog'liqdir, stilistik neitraldan yo'qori bo'lgan ekspressivlik albatta kuchayishni yoki kuchaytirilishni taqozo qiladi. [68]. Bundan tashqari bu ikki kategoriya lingvistik kategoriya hisoblanib, birgalikda ular ifodalilikning pragmatik

effektini va nutq ifodaliligini tashkil qiladi. Ikkalasi ham shunchaki xabar, muloqotni emas, balki adresatga kuchli ta'sir etishni anglatadi. Ekspressivlikning formal aspekti va intensivlikning formal aspekti ham bir – biriga to'g'ri keladi. Ikkala kategoriya ham adresant tomonidan gapning ekspressiv vositalarni va intensiv vositalarini sub'ektiv tanlashi bilan bog'liq. Ikkala kategoriyaga ham emotsionallik va hissiylik ko'rsatkichlari xosdir.

E.A. Sheigalning fikricha, intensivlik va ekspressivlik o'rtasida inkluziv munosabatlar emas, sabab- ergash munosabatlar yotadi. [67:8].

Ekspressivlik matnga xos belgi, intensivlik bu belgining belgisi ekanligidan kelib chiqib, I.I. Turanskiy shunday xulosaga keladiki, ushbu tushunchalar o'rtasida inkluziv yoki sabab – ergash munosabatlar emas, ingerent munosabatlar bor deydi va yozadi: "Tabiatda barcha predmetlar o'lchovlar bilan o'lchanganidek, miqdorsiz sifat bo'lmaganidek, nutqiy faoliyatda ham ekspressivlik – bu nutqning sifat tomoni, intensivlik esa sifatning (ya'ni ekspressivlikning) miqdor xarakteristikasidir. Ekspressivlik haqida gapirganda uning sifat xarakteristikasi – intensivlikka e'tibor bermasdan gapirib bo'lmaydi. Birgalikda ekspressivlik fakti va uning miqdor xarakteristikasi (intensivlik) ma'lum pragmatik effektini tashkil etadi [68:20].

Intensivlikni ifodalash uchun til fonetika, morfologiya, leksikologiya va sintaksis kabi turli tenglik hosil qiluvchi fanlarga tayanadi. Bunda asosiy o'rinni intensivlik kategoriyasini ifodalashda intensivlashning leksik vositalarini o'rganish egallaydi, chunki aynan shu til darajasi ko'proq miqdordagi til birliklarini tashkil qiladi. Bunga dalil sifatida "Ingliz va rus tillarining kuchaytirilgan so'z birikmalari lug'ati" ni keltirish mumkin. Unda eng ko'p sonli leksik birliklar plastini ravishlar, fe'llar va sifatlar tashkil etgan. [69].

Ingliz tilida Duayt Bolinjerning "Degree words" monografiyasi [62] turli guruhdagi tayanch so'zlarni – otlar, sifatlar, fe'llarni ajratish prinsipi asosida yozilgan. Transformatsion metod asosida ularning turli guruhlari bilan birikadigan intensifikatorlarning xususiyatlari aniqlangan. Bir qator tadqiqotlar so'z

semantikasiga, va sifat semantikasiga bag'ishlangan. Xususan, sifatning intensifikatorlar vazifasini o'tashiga bag'ishlangan.[66, 22, 53]. Alohida ishlar turli so'z turkumlari: otlar, ravishlar, yuklamalar, modal so'zlarning intensifikatorlar rolini bajarishiga bag'ishlangan. [32, 1].

Nihoyat, bir qator izlanishlar kuchaytirishning frazeologik usuliga bag'ishlangan. Biroq, qayd etish kerakki, frazeologiyada intensivlik kategoriyasini o'rganish faqat FB frazeologik birliklarning ma'noni kuchaytiruvchi struktur – semantik hosil bo'lishini ko'rib chiqish bilan cheklanadi.

Ifoda belgisi sifatida frazeologik intensifikatorlar ekspressiv ma'no o'zgarishiga uchraydi va ko'p hollarda ularning komponentlari dastlabki lug'aviy ma'nosini yo'qotadi. Natijada frazeologizmlar butun intensifikatsiyalashgan ma'no kasb etadi, masalan, *likeashot*, *likelightning*, *likeoneo'clock* – juda tez, zumda, darhol. *Asanything*, *asblazes*, *ashell*, *asallgetout* – do'zaxilarcha, adski, jinursinkabi, cherytovski. *astheycome*, *astheymakethem* – favqulodda, chrezvichayno, isklyuchitelno.

Tadqiqot ishining dolzarbligi frazeologik intensifikatorlarni frazeologiyada intensivlikni namoyon qiluvchi vosita sifatida o'rganilishi, FI larning turg'un birikmaliligi, frazeologik intensifikatorlarning kognitiv aspektda o'rganilishi, FI ma'nolariga freym yondashuv, FI ma'nolarini ochishda metafora qo'llanilishini o'rganilishida ko'rinadi.

Tadqiqotimizning ob'ekti zamonaviy ingliz tilida aktiv qo'llanadigan 47 birliklarni o'z ichiga olgan frazeologik intensifikatorlar korpusidir.[FI to'liq ro'yxati ilova qilinadi].

Tadqiqot maqsadi frazeologik intensifikatorlarning kognitiv aspektda o'rganilishining funksional – pragmatik faktorlarini o'rganish va aniqlashdir.

Fikrimizcha, FI qo'llanilishini funksional – pragmatik o'rganish antropologik nuqtai - nazaridan FI ning diskursda qo'llanilishini to'liq manzarasini yaratishga imkon beradi. Maqsadga ko'ra tadqiqot **quyidagi vazifalarni** o'z oldiga qo'yadi:

1. FI semiotik xarakteristikasini tasvirlash.
2. FI ma'nolari kognitiv aspektini o'rganish.
3. FI ma'nolarini freym yondashuv bilan tadqiq qilish.
4. Metafora - FI ma'nolarini ochish usuli sifatida o'rganilishi.

Tadqiqot materiali - ingliz va amerika mualliflarining badiiy asarlari, inglizcha izohli va frazeologik lug'atlardir.

Tadqiqot asosida antroposentrizm prinsipi yotadi. Ushbu prinsipga ko'ra, idiomalar ishlatilishi va birliklarining xarakterini tildagi inson faktori tashkil etadi.

Inson, aniqrog'i uning nutqi FI funksional – pragmatik aspektlarini tahlil qilishda muhim manbadir. FI tadqiqot ob'ekti sifatida avvalo, inson uchun qanday rol o'ynashiga ko'ra, insonning verbal faoliyatida qo'llanilishiga ko'ra o'rganiladi.

Asosiy **metodologik prinsiplardan** biri tadqiq etilayotgan hodisaga kompleks va tizimli yondashuvdir. Oldimizga qo'yilgan vazifalar hamda tadqiqot ob'ekti til spetsifikasi quyidagi **lingvistik metodlardan** foydalanishni taqozo qildi:

- 1) Frazeologik tahlil metodi – FI iboralarining erkin so'z birikmalaridan farq qilishini tahlil qilish;
- 2) Frazeologik tasvirlash metodi – FI frazeologik ma'nolarini tahlil qilish uchun. Ushbu metod A.N. Baranov, D.O. Dobrovolskiy tomonidan ishlab chiqilgan idiomalarning aktual ma'nolarini konseptual modellesh nazariyasi bilan [20] hamda J. Serlining metaforik ma'nolar tahlili bilan bog'liq. [93].
- 3) Interpretativ metod – FI larning aloqalari va munosabatlarining butun to'liqligi bilan tushunish va tushuntirish uchun. Interpretativ metod asosida T. van Deik tomonidan ishlab chiqilgan diskursiv tahlil metodi yotadi. [40, 63].
- 4) Lingvistik eksperiment metodi;

Tadqiqotning ilmiy yangiligian’anaviy etimologik va diaxronik tasvirlashdan hamda frazeologik taksonomiyalarni tadqiq qilishda qabul qilingan evristik yo’llardan farq qiladigan tahlil asosida FI larni o’rganishdir. FI larni diskursiv distributsiyasi ifodasining belgisi sifatida ilmiy tasavvurga ega bo’lib, biz til olamida FI larning o’rni va uning diskursiv xususiyati haqida ko’p savollarga javob bera olamiz.

Tadqiqot natijalari nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, diskursiv distributsiyalar tahlili asosida FI (frazologik intensivifikatorlar) larning belgi xususiyati, spetsifikasi ochiladi. Sistem – til tasvirida FI odatda ikkilamchi predikatsiya sifatida namoyon bo’lgan, lekin diskursda ular illokutsiya belgilari bo’lib ko’rinadi. Tadqiqot diskurs ishtirokchilariga diskursiv vositalarning kuchaytirilgan ta’sirini lingvistik fikrlashni o’rganishga xizmat qiladi. FI larni tadqiq qilishga nutq aktlari nazariyasi qo’llanilishi, intensional holatlar nazariysi, diskurs nazariyasi va metaforalar nazariyasining qo’llanishi FI larning ifoda vositasi va nutqiy ta’sir vositasi sifatida kompleks modelini qurishga imkon beradi.

Ishning amaliy ahamiyati uning frazeologiya bo’yicha kurs ishlarida, interpretatsiya nazariyasidan maxsus kurslarda , diskurs tahlilida foydalanilishi mumkinligidadir.

Tadqiqot ishimiz kirish, uch bob, xulosa va adabiyotlar ro’yxatian iborat.

BOB I. Frazologik intensivifikatorlarning kategorial va semiotik xarakteristikasi

1.1.Frazologiyada intensivlik kategoriyasi. Frazologik intensivlikning aktuallashishi.

Intensivlik onomasiologik kategoriya sifatida sifat darajasini, miqdor o'lchovini ko'rsatadi, boshqacha aytganda, u yoki bu belgining ob'ektiv miqdoriy aniqligini bildiradi. Ushbu tadqiqotda intensivlik semantik kategoriya sifatida tushuniladi.

Yaqingacha frazeologik intensivlik muammosi tilshunoslikda kam o'rganilgan edi. Tilshunoslikdagi mavjud adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, frazeologiyada intensivlikka tegishli masalalar turli tillardagi materiallardagi bir qancha ilmiy ishlarda ko'tarilgan.

Ingliz tilida frazeologiyada intensivlik haqidagi masala birinchi bor 1922 yilda Logan P. Smitning "Society for pure English" da nashr etilgan "Ingliz idiomalari" deb nomlangan ishida ko'rinadi. Keyinchalik u muallif tomonidan "So'zlar va idiomalar" kitobiga kiritildi. ("Words and idioms. Studies in the English language". 1925 yildagi birinchi nashri). Unda biz kuchaytirilgan ma'noli frazeologik birliklar haqida ilk bor qayd etilganini ko'ramiz. O'z oldiga bu birliklarning spetsifik xususiyatlarini o'rganish vazifasini qo'ymasdan, Logan P. Smit faqat tilda frazeologik birliklar - intensiv ma'noli komparativ oborotlarning katta bo'lmagan guruhi borligini qayd etadi. Ingliz olimi 23 ta komparativ frazeologik birliklar ro'yxatini keltiradi. Mas. *As dull as ditch water, as good as gold, as large as life, as mad as March hare, as pleased as Punch, as cool as cucumber, as cross as two sticks* va hok.

Ingliz tilida frazeologiyada intensivlik muammosini o'rganishga e'tiborning dalili sifatida so'ngi o'n yilliklardagi tadqiqotlar, maqolalar, alohida qaydlarni aytish mumkin. Ularda FB larning struktur – semantik hosil bo'lishi, ularning ma'nosini kuchaytiruvchi, kuchaytirilgan ma'noli komparativ FB lar, sintaktik idiomatika hamda frazeologik intensifikatorlar ko'rib chiqiladi.

N.P. Geraskina, I. Ya. Svinsitskiy, A.F. Artemova nomzodlik tadqiqotlarida frazeologik birliklarning ma'noni kuchaytirishga qaratilgan struktur – semantik hosil bo'lishini ko'rib chiqadilar. [32, 78, 5]. Bunday hosil qilinishlarga kiritilish (vklivaniye), komponentlarni almashtirish, qo'shimcha qilish

kiradi. Strukturadagi o'zgarishlar semantikadagi o'zgarishlarga olib keladi. Chunki kiritilayotgan element bevosita FB semantik strukturasi tashkil qiluvchi elementlardan biridir va frazeologizm ma'nosini kuchaytiradi. [32]. Masalan, *a big bee in one's bonnet* frazeologik birligida ma'no kuchaytiruvchi - *big* sifatining kiritilishidir. *Mad as a hornet* zoomorfizmida ma'no *six* sonini FB ga kiritish bilan kuchaytiriladi.

Mad as six hornets[78]. Struktur – semantik usullarning ushbu guruhiga “qo'shish” (dobavleniye) usuli ham kiradi. *Bureaucratic* elementining *redtape* (formalism) FB ga qo'shilishi frazeologizm ma'nosini kuchaytirishga xizmat qiladi.[32]. N.P. Geraskina bunday struktur – semantik hosil bo'lishlarni muhim xususiyatini ta'kidlab shunday deydi: “Shunday struktur – semantik usullar tufayli ifodalilik ancha oshadi , va parlamentda chiqishlarning ham ta'sir kuchi oshadi” [32:105].

Bunday fikr A.F. Artemovanning ishlarida ham bor.[5]. FB larni va ularning pragmatik potensialini o'rganib, u shuni ko'rsatadiki, FB larning intensivligi tinglovchiga ta'sir vositasi sifatida borliqning har qanday miqdoriy kvalifikatsiyasi bilan emas, balki normalardan chekinishni namoyon qiluvchi tasnifi bilan bog'liq. Muallif buni quyidagi misol bilan tushuntiradi: *Women jump to conclusion that men do not. To jump to conclusion* ifodasi Artemova ta'kidlaganidek, ayollarga xos bo'lgan, ularni erkaklardan farqli ravishda har doim ham to'g'ri xulosaga kela olmasligi , har doim ham qandaydir impulslarga berilib, qiladigan hatti – harakatini o'ylab o'tirmasligi kabi xususiyatini ifodalaydi. Qiyoslaymiz: *to come to conclusion* va frazeologik birlik *to jump to conclusion*.

To jump to conclusion FB sini *to jump to conclusion very quickly* aspektida interpretatsiya qilish (tushuntirish) mumkin.[5:75]. Artemovanning fikricha ushbu frazeologizm *xulosaga kelmoq* ma'nosini emas, uning yo'qori darajasini, *xulosaga juda tez kelmoq* real harakatni emas, shunday harakat haqidagi tasavvurni aktuallashtiradi. Boshqa so'zlar bilan aytganda, bu bizning tadqiqotimiz doirasiga

to'g'ri keladi – ma'no kuzatish va ko'rsatish dunyosidan tasavvur va ta'sirlanish dunyosiga o'tadi.

I.Ya. Svinsitskiy shaxsning sub'ektiv bahosi frazeologik vositalarini o'rganayotib, *eye, ear, elbow, eyebrow* va boshqa up+Nsom. modeli somatik komponentli FB lar guruhini ajratadi. Bular lug'atlarda *completely, verymuch, deeply* semalariga ega. Masalan, All of big capitalist powers were **up in their necks** in debt to the United States[78].

G. Kirxner va I.I. Turanskiy ishlarida sintaktik idiomatika ko'rib chiqilgan. Kirxnerning "Gradadverbien" ishida "*good and + Adj./ Part.*" konstruksiyasiga ega iboralar ro'yxatini ko'ramiz: *good and angry, good and stuck, good and glad, good and hard, good and tired, good and mad at ...; good and sick, good and right, good and dark, good and ready*. Sanab o'tolgan birikmalar fe'lning harakati yoki holatini kuchaytiradi[79:92-93].

I.I. Turanskiy yana ikki sintaktik konstruksiyani ajratadi: "*..andthensome*", gapni tugallaydigan va predikativdan keyin yana predikativ guruh sifatida davom etadigan va fe'l ad'yunkt sifatida xizmat qiladigan va shartli ishlatiladigan "*but + Adj.*" konstruksiyasi. Masalan, He is a genius **and then some** (Bolinger).

Frank Sinatra is alive and living – **but good** (Nilsen and Nilsen).

Bunday konstruksiyalar, Turanskiyning fikricha, avvalo so'zlashuv nutqiga xos. Olimning hisoblashicha, ularning asosiy vazifasi fe'ldagi harakatni tezlashtirish, predikat holati mazmunini kuchaytirish. "Tahlil qilinayotgan strukturalar mazmuni elativ mazmuniga teng" [68:113].

Intensivlashning sintaktik vositalarini o'rganish bilan birga Turanskiy kuchaytirish vazifasini bajaradigan komparativ frazeologik birliklarni ham ko'rib o'tadi. Ularni uch prinsip bilan tasniflashni taklif qiladi:

I. Semantik mazmuniga ko'ra u ularni to'rt guruhga bo'ladi:

1. Asos sifatida jonsiz predmetlarning fizik xususiyatlarini qiyoslashga xizmat qiladigan strukturalar. *Aslightasgossamer*.

2. Asosida tabiat hodisalarini qioslash yotgan komparativ strukturalar. *asfreeasthewind*.

3. Fauna nomlarini o'z ichiga olgan strukturalar. Jismoniy sifatlar ustunlik qilgan hayot tarzi, xususiyatlar qiyoslashda asos bo'ladi. *asslowasatortoise, asobstinate / stubbornasamule*.

4. Bibliya, mifologik syujetlar, tarixiy shaxslar bilan bog'liq allyuziyalar: *asrichasCroesus*.

II. Alliteratsiyaning yo'qligi yoki ishlatilishiga bog'liq ravishda komparativ FBlar sinfi

1. Strukturasida alliteratsiya usuli ishlatilgan FB sinfiga: *as blind as a bat, as pleased as Punch, as thick as thieves*:

2. alliteratsiyasiz FB sinfiga bo'linadi: *as happy as a lark, as black as sin, as like as two peas*.

III. FB rus va ingliz varianti muvofiq yoki muvofiq emasligiga qarab uchta kichik guruhlariga bo'linadi:

1. Qiyoslanyotgan tillarda to'liq mos keladigan (*to work like crazy – работать как сумасшедший*);

2. Qisman mos keladigan (*as soft as butter – мягкий как воск*). Qiyoslang: *asyielding as wax*.

3. Ko'rilayotgan variantlar o'rtasida qandaydir moslikning yo'qligi (*as dull as ditch – water – скука зеленая*) [68:93].

A.F. Artemova komparativ frazeologik birliklar haqida juda muhim tasnif beradi: "Obrazlilik implisit yoki metaforik tarzda ifodalanmagan qiosiy frazeologik

birliklar ko'proq kuchaytirish funksiyasini (vazifasini) bajaradi. Boshqa so'zlar bilan aytganda, ulardagi kuchaytirish funksiyasi emotsional – hissiy funksiyasidan ustunlik qiladi” [5:79].

Til tizimining bir qismi sifatida frazeologiya o'z tarkibida alohida birliklar plastini – intensifikatorlarni jo qiladi va tildagi uchta fundamental funksiyalar – nominativ, kommunikativ, pragmatik funksiyalar bilan o'zaro hamkorlikda shakllanadi. Yorqin pragmatik funksiya bilan ifodalangan bu FB inson ruhining emotsional tomoniga yo'nalgan bo'ladi va u orqali intensional ta'sirlanish vositasida bo'lib o'tayotgan hodisa, voqeani idrok etiladi. Ayon bo'ladiki, frazeologiyada intensivlik muammolarini o'rganishda asosiy o'rinni frazeologik intensifikatorlarni o'rganish egallaydi. Biroq, ba'zi frazeologlarning aytishicha, **barcha turdagi FB u yoki bu darajada intensifikatorlardir**, chunki boshqa leksik birliklarga nisbatan tilning frazeologik birliklari tushunchasi ifodasi aytilgan fikrni 'kuchaytiradi", uning ekspressivligini oshiradi [80]. Bizning fikrimizcha ushbu nuqtaiy nazar e'tiborga va yanada rivojlantirishga loyiq. Shu bilan birga, I.I. Turanskiyning “Kuchaytiruvchi frazeologizmlar, terminning o'zi guvohlik berib turganidek, fikrni intensivlashning eng keng tarqalgan usulidir va boshqa vositalar bilan birgalikda intensivlik kategoriyasini namoyon qilishda, shakllarining umumiy tizimida o'zining aniq o'rniga ega” degan fikriga ham qo'shilmiz[68:145].

1.2. Frazeologik intensifikator frazeologiyada intensivlik kategoriyasining namoyon qilish vositasi sifatida

Zamonaviy ingliz tilida FI turli funksional stillarning ajralmas qismiga aylanganiga qaramasdan, u frazeologiyada kam o'rganilgan soha bo'lib qolmoqda. Frazeologiya bo'yicha mavjud adabiyotlar tahlili ko'rsatdiki, umuman frazeologlarning ishlarida FI qandaydir frazeologik masalaning ko'rib chiqilishida faqat illustrativ material bo'lib xizmat qilgan.

Undalma frazeologik birliklarni va ularning kontekst ishlatilishi xususiyatlarini ko'rib chiqishda N.V. Polishuk undalma FI larning maxsus sinfini – emotiv

intensifikatorlarni ajratadi [81]. “Emotiv intensifikatorlar ijobiy yoki salbiy emotsiyalarni bildiradi. Bu frazeologizmlar ikki emotsiya komponentini aktuallashtiradi: baho (otsenka) va “qo’zg’ash” antinomiyasini” [81:5].

Bu sinfga *“I’ll eat my boots (yoki head)!”*, *“I’ll eat my hat if ...!”* (даюголовунаотсечение) tipidagi FB lar kiradi. Bular bitta usulga, absurd, alogizmgacha etkazilgan giperbola usuliga asoslangan. Bir guruh emotiv intensifikatorlar oldingi gapni kuchaytiruvchi undov, his – hayajonni o’z ichiga oladi: *“By Jimmy!”*, *“By the living jingo!”* (*“xudo haqqi!”*, *“jin ursin!”*). *“who/where/How... on earth, the hell, the devil, in God’s name?”* (*“kim, qayerda, qanday ... jin ursin?”*).

Ingliz tilida FI larning eng to’liq tarkibi birinchi bor A.V. Kunin tomonidan aniqlandi. Inglizcha – ruscha frazeologik lug’at 47 birlikni o’z ichiga oladi, ro’yxati ikkinchi ilovada berilgan. Keng illustrativ material guvohlik beradiki, juda ko’pchilik FI lar zamonaviy ingliz tilida, uning har xil stil va janrlarida amal qiladi.

A.V. Kuninning ishlarida [61] FI lar kelib chiqish, hosil bo’lish yo’llari, zamonaviy ingliz tilida ishlatilish xususiyatlari ko’rib chiqiladi. Ularning struktur – semantik va grammatik xarakteristikalarini tahlil qilinadi. O’zining idiomalar klassifikatsiyasida olim FI larni nominativ adverbial frazeologik birliklarga kiritadi. **Strukturasiga ko’ra Kunin intensifikatorlarni uch guruhga** bo’ladi: bir so’z turkumli, o’zgaruvchan so’z birikmasi bilan ikki so’z turkumli, ergash gap strukturali uch so’z turkumli intensifikatorlar. Ular doimo as yoki like bog’lovchisi bilan keladi. Bu tipdagi FI larning ko’pchiligi bir so’z turkumli (ya’ni bitta mustaqil, bitta yordamchi so’z turkumi, ikki yoki uch yordamchi leksemalardan iborat) bo’ladi. Intensifikatorlar sintaktik bog’langandir, chunki ular ma’lum bir so’z turkumlariga birikkan bo’ladi va o’ziga xos yarim komparativ oborotlar sifatida qaralishi mumkin. A.V. Kunin ularni ikki tipga bo’ladi: sifat, ravish intensifikatorlari va fe’l intensifikatorlari [61:290]. Birinchi tipga quyidagi *as anything, as blazes, as*

hell, as the devil, as old boots, as all get out – do'zaxdek, adski, dyavolski kabi FI larni kiritish mumkin.

Ikkinchi tip, Kuninning aytishicha, eng ko'p sonli FI guruhini tashkil etadi va quyidagi birliklarni o'z ichiga oladi: *like one o'clock – aniq, like billy-or, like blazes – kuchli, favqulodda, dahshatli, like fun – g'ayrat, shijoat bilan energichno, juda tez, like hell, like mad, like the devil – jin kabi, kak chert, chertovski, dyavolski, like a bat out of hell – butun kuchi bilan vo vsyu moch, like nobody's business – nihoyasiz, bez kontsa, chertovski lovko, like old boots – bor kuchi bilan, izo vse sil va hok.*

Zamonaviy ingliz tilida ergash gap tuzilishli murakkabroq strukturali bir qancha intensifikatorlar uchraydi. *As they come, as you please, - favqulodda, as they make them, as the day is long – chrezvichayno, isklyuchitelno, favqulodda.* To'liq ekspressiv ma'no bu oborotlarning predikativ strukturasini butun, intensifikator ma'noga aylantirgan.

Shunday qilib, ishonch bilan aytish mumkinki, frazeologiyada intensivlik kategoriyasi ma'noni kuchaytirishga yo'naltirilgan FE struktur – semantik sferasiga kiritildi. FI larning belgi funksiyalari bu paradigmada kam tadqiq etilganligi ma'lum bo'ldi.

Bob II. Frazeologik intensifikatorlarning xarakteristikasi va belgi funksiyalari

2.1. FI xarakteristikalari va belgi funksiyalarini o'rganish muammolari.

F. de Sossyurning postulati shu haqdaki, til belgilar tizimidir. Bu FI belgisi tabiatini aniqlashga, u nima bilan “ta’minlangan”, uni tasdiqlashga izn beradigan spetsifikasi qanday, FI so’z belgisidan ham, so’z birikmasi funksiyasi belgilaridan ham farq qiladigan xususiyatini aniqlashga da’vat qiladi.

FI belgi funksiyalari va xarakteristikalarini o’rganshga bag’ishlangan tadqiqotlar kamligining bosh sababi bizning fikrimizcha, frazeologiya belgisini belgining atrofga munosabati sifatdayoki belgining gapiruvchiga, gapiruvchining belgiga (uning pragmatikasiga) munosabatini hamda frazeologizm va uning atrofida gilarining munosabatini aniqlaydigan “ichki” tomondan olib borilmadi[82]. Yangi kognitiv paradigmaga o’tish kognitiv ilmini lingvistik semantikadan semiotikaga o’tishini bildiradi.

Kognitiv paradigma idiomalarning belgili funksiyasi xususiyatini bildiradi. V.N. Teliya uning postulatini “...aniqligi isbotsiz qabul qilinadigan monetaga o’xshash” deb ta’riflaydi [73:131]. Frazeologizmlar spetsifik belgili xususiyatga egaligini ko’rsatishga uringan birdan – bir olim V.L. Arxangelskiy edi. U frazeologizmlarning barcha sinflariga xos universal belgilar topishga harakat qildi. Bu uni “ til tizimiga nisbatan qo’llaganda frazema belgining quyidagi constant, o’zgarmas xususiyatlarini ko’rsatish mumkin” belgi qobig’ining materialligi; (fonetik jihatdan – eshitish yoki grafik, ko’rish); integrantlar alohidaligi; butunning va qismlarining yaxlitligi, ma’noning kombinator uyg’unligi, gapiruvchining hohishiga ko’ra borliqqa nisbatan ixtiyoriy xarakterdaligi; invariant ma’nolarni ifodalash uchun ma’lum elementlarning qat’iy tartibi; shakl biqirligiga mos ravishda ma’no biqirligi; birikma yoki gapning morfologik – sintaktik qurilganligi; frazeologiya birliklari va uning qoidalari til tizimiga tegishli; til strukturasi laqabni anglatuvchi elementlarning borligi; bunga asoslanib, ellipsisning mavjud bo’lish ehtimoli; ichki formaning yo’qolishi mumkinligi; frazem birlikningsuggestivligi va hok.[6]. Keyin “ Frazem birliklar mustaqil ruhiy qimmatga ega. Richaglarga o’xshab, ular fikrning tezlashishi va obrazligiga xizmat qiladi[6:112]. Olim frazem belgining spetsifik xususiyatlarini atroflicha tasvirlagan, obrazlilik va fikrni tezlashtirish richaglariga

qiyoslagan, shuni qo'shimcha qilish maqsadga muvofiqki, pragmatik funksiyani bajarishni ham, ifodalanayotgan narsaga nutq sub'ektining turli munosabatini ham ifodalash qobiliyatini kiritish kerak.

Ilmiy adabiyotda "frazeologik belgi", "frazeologizm – alohida xususiyatga ega belgi" tipidagi fikrlarning keng tarqalganligi frazeologik semiozisning mustahkam poydevori borligiga guvohlik beradi. Haqiqatda esa, bu yerda ko'p noaniqlik va "oq dog'lar" borki, ulardan biri, bizning fikrimizcha, FI belgi spetsifikasidir. Agar FI aynan o'ziga xos belgi spetsifikasiga ega bo'lsa, unda u uning struktur – semantik tuzilishida emas, balki belgi ma'nosi bilan belgi "tana"sining mosligiga qanday xarakterli xususiyatlar xos ekanligidadir.[73]. Boshqa so'zlar bilan aytganda, belgi sifatida FI spetsifikasi o'zi ifodalayotgan borliq elementlari xususiyatiga to'g'ri kelishi kerak. Boshqa belgilardan farqli ravishda FI belgi sifatida o'rnini bosa oladigan hamma narsani nazarda tutmoqdamiz. Shunday qilib, FI belgi funksiyasining tabiati va uning belgi xususiyati nominatsiyasida, (atamaning) o'zida yashirindir.

FI funksiyalari va belgi xususiyatlari tizimi hali frazeologizmlarning potentsiyal hosil bo'lish darajasida turibdi va belgilarning zaruriy mo'l – ko'lligi darajasiga etishni bildiradi. Mo'l – ko'llik – til belgisining mutloq zaruriy xususiyatidir, deydi Bibixin [23]. Idiomatikada mo'l – ko'llikka umumsemiotik yondashuvda "boshidanoq "ortiqcha", "keraksiz" tushunchasidan chetlashib, uni "takrorlanayotgan", "tiklangan" tushunchalariga bog'lash kerak [47:172]. Bu o'rinda frazeologik abstraksiya katta rol o'ynaydi. Frazeologik abstraksiyani boshdan o'tkazmay turib, FI kerakli mo'l – ko'llikka erisha olmaydi.

2.2. FI belgilari hosil bo'lish jarayonida frazeologik abstraksiya.

V.L. Arxangelskiy frazeologik abstraksiyaning mohiyatini aniqlagan birinchi lingvist bo'lgan. "Agar frazeologik zanjirdagi turli turg'un so'z birkmalari haqiqatdan ham erkin so'z birkmalari va so'zlardan farq qiladigan alohida til birliklari sifatida mavjud bo'lsa, u holda ularga so'zlardan farq qiladigan alohida til abstraksiyasi

xosdir” [6:61].Frazeologik abstraksiya nazariyasini ishlab chiqish jarayonida e’tibor frazeologik birliklarning semantikasiga qaratildi.A. M. Melerovich ushbu tushunchani motivlashish bilan bog’laydi.“Frazeologik abstraksiya frazeologik ma’no motivlashishi bilan bevosita bog’liqdir” deb qayd etadi [61:158]. Uning fikricha, ikki hodisaning shunday bog’liqligi sharoitida frazeologik abstraksiya va motivlashish o’rtasida teskari proporsional bog’lanish bor.

Frazeologik ma’no motivlashishi ma’lum bir turining mavjudligi shunga muvofiq frazeologik abstraksiya yo’qligi yoki to’liqsizligidan guvohlik beradi, va aksincha, frazeologik abstraksiya qanchalik to’liq bo’lsa, shunga mos motivlashish tipi shunchalik kuchsiz bo’ladi.Bu fikrga Kunin ham qo’shiladi. U yozadi:”... frazeologizm semantik strukturasi qanchalik murakkabroq bo’lsa, frazeologik abstraksiya darajasi shunchalik yo’qori bo’ladi, motivlashmaganlik darajasi ham shuncha yo’qori bo’ladi[61:164]. Keyin olim frazeologik abstraksiyaning to’rt darajasini ko’rsatadi:**eng baland, baland, o’rta va past, birinchi ikki darajada abstraksiyaning to’liq va to’liqsiz darajasi** ajratiladi. Frazeolog olimning tasniflashishiga ko’ra, FI da abstraksiyaning eng baland va baland darjasi kuzatiladi.

Ko’pchilik FI larda **eng baland abstraksiya darajasi** borligi kuzatilgan. Masalan, *as the day is long, as they come, as they make them, fine and ... , nice and ... good ... , rare and ... , as anything, like anything, as old boots, like blazes, as hell, like nobody’s business* va boshqalar.

Kuninning hisoblashicha, hosil bo’lish bosqichidayoq, bu FI larning ma’nosi FI bosh komponentlari ma’nosidan to’liq abstraktlashadi (mavhumlashadi).Bu haqda FI birinchi, dastlabki ishlatilishi kontekstlari guvohlik beradi.Buning uchun OED ma’lumotlaridan foydalandik.Ulardan ba’zilar 1741, 1780, 1845 yillardagi davrga tegishli.

1. *If ear your girl will grow as proud **as anything** (OED, vol. I, p. 379).*
2. *He that will be cheated the last.*

*Delusions strong **as Hell** shall bind him fast (OED, vol. V, p. 203).*

3. *She sets her face against gals working in mills like blazes* (OED, vol.I, p.907).

Empirik materialning ko'rsatishicha, dastlabki kontekstlarida FI "*dahshatli, nihoyatda, bor kuchi bilan, adski, ujasno, dyavolski*" ma'nolariga ega bo'lgan. Vejbitskaya mantiqiga ko'ra "ujasnaya" "ochen, juda" ma'nosini bildiradi.[28]. FI lar ko'pincha giperbolaga to'g'ri keladi. Shunday qilib, FI paydo qiluvchi kontekstlar frazeologik abstraksiyaning eng yo'qori darajasi bilan *giperbolik ifodalarni* namoyon qiladi.

Biroq, frazeologik abstraksiya nafaqat FI ma'nosining uning komponentlari so'zma – so'z ma'nosidan farq qilishi bilan, balki FI paydo bo'lishi konfiguratsiyasining muallif konfiguratsiyasidan farq qilishi bilan xarakterlanadi. Tadqiqotlar ko'rsatdiki, FI frazeologik abstraksiyasi darajasi ularning paydo bo'lish konfiguratsiyasining ularning birinchi bor ishlatilish lug'aviy ma'nosidan, kontekstidan farq qilish darajasi bilan oshib boradi. "Frazeologik abstraksiya darajasi dastlabki boshlang'ich kontekstdan qanchalik yo'qori bo'lsa, frazeologik birliklarning ichki semiologik resurslari realizatsiyasi hisobiga turli – tuman imkoniyatlari shunchalik ko'p bo'ladi" [47:167].

As the day is long FI sini ko'ramiz. *iblisona, чертовски, ужасно, чрезвычайно, favqulodda. Like wild fire стремительно, мгновенно, zumda.* Dastlab *as the day is long* FI faqat sheksprizm tarkibida uchragan, *as merry as the day is long, like wild fire* birinchi bor U. Shekspir tomonidan *to burn* predikati bilan birkmada ishlatilgan. Masalan,

1. Beatrice: ... he shows me where the bachelors sit and there live we **as merry as the day is long**. (W. Shakespeare "Much ado about Nothing").
2. " ... whose words **like wild fire** burnt the shining glory of rich – built Illion" (W. Shakespeare "The Rape of Lukrece", p. 185).

Ushbu FI lar asta – sekin dastlab ishlatilgan kontekstdan, ya'ni merry, to burn predikatlari bilan birikmasidan abstraktlashadi. Bitta birikma bilan ishlatilish

xususiyatining o'zgarishi FI ning eng turli – tuman predikatlar bilan birikmalarda paydo bo'lish imkoniyatiga olib keldi. Masalan,

1.They are quiet, peaceable, tractable, free from drunkenness, and they are industrious **as the day is long** (Mark Twain).

2. “ A real honest- to- god Albino?” Shaw asked.

“**As real as the day is long**” (E. Caldwell).

3.Next day word went about the country **like wild fire** that Mr. Renny had beaten Jessica Brown within an inch of her life (R.L. Stevenson).

4.The report ... spread **like wild fire** through the town. (OED, vol.XII, p.125).

FI korpusida frazeologik abstraksiya darajasi yo'qori bo'lgan FI lar guruhi ajratiladi. Bunday FI larga quyidagi frazeologizmlar kiradi: *like the devil, as the devil, like a shot, like lightning, like mad, like crazy, like a house afire, like one o'clock*.

Agar abstraksiyaning eng yo'qori darajasida frazeologik ma'no vauning protopipi o'rtasidagi uzilish natijasida frazeologik ma'no ikki planligi y'oq bo'lsa, bu yerda A.V. Kuninning bir fikri muhim, ya'ni , frazeologik birliklar qanday yo'l bilan paydo bo'lmasin, ular albatta potensial frazeologallashuv bosqichidan o'tishi kerak. Bu frazeologiya qonuni.[60:91]. Potensial FI ni paydo b'lish bosqichida frazeologik birlikka xos stilistik buyoq va metaforalik xususiyatlariga ega til birligi deb bilish mumkin. Shunday qilib, yo'qorida ko'rsatilgan FI potensial frazeologallashuv bosqichidan o'tadi. Bunda ular metaforik qiyoslash va metaforik o'xshatish kabi gaplar tarkibiga kiradi. *Like one o'clock* FI siga misol keltiramiz.

1. ”Mr. Guppi and Mr.Jobling repair to the rag and bottle shop, where they find Krook still sleeping **like one o'clock**; that is to say, breathing stertorously with his chin upon his breast, amnd quite insensible to any external sounds, or even to gentle shaking (Ch. Dickens”Bleak house”, p. 238).

Ushbu misolda ko'rganimizdek, FI informativlikning juda yo'qori darajasiga ega birlik, uni tushunish uchun kontekst vositalaridan foydalanishni taqozo etiladi. Shuning uchun *like one o'clock* ma'nosi FI dan o'ng tomondagi kontekst qismi bilan izohlanadi. Bu bosqichda frazeologik abstraksiya mexanizmi faollashadi, u potensial to'liq ma'noga ega so'z birikmasi tarjimasini ta'minlaydi, bir belgi tizimi (kontekst) dan boshqasi, (tilga) o'tishini, paydo bo'lish konfiguratsiyasini muallif konfiguratsiyasidan farqlanishini ta'minlaydi.

Like one o'clock FI si quyidagi kontekstlarda yangi, yo'qori informativlik mazmunga ega emas, uning mazmuni kontekstda izohlanishi zarur emas, FI birligi mo'l-ko'lligi ichki semiologik resurslari hisobiga tushunilishi uchun etarli. Masalan, 1. Anything about the meeting, sir? Your speech must read **like one o'clock**" [J. Galsworthy, "The White Monkey", p.261].

2. But a devout admirer had entertained the preacher at luncheon that day in the hotel in which I was staying. ... The preacher tucked in to the arroz **like one o'clock**. [W.S. Maugham, "Don Fernando", p. 68].

Yo'qoridagi misollarda ko'ringanidek, FI semantikasi sohasidagi frazeologik abstraksatsiyasi harakati FI konteksti semantik integratsiyasidir. Semantik integratsiyaning eng keng tarqalgan usuli semantik takrorlash (семантическое дублирование) dir. A.M. Kaplunenko fikricha, frazeologik birlik kontekstining semantik integratsiyasi idiomalar semantik integratsiyasining tayyorlanish bosqichidir [47]. Frazeologik konfiguratsiya komponentlarining takror hosil bo'lish jarayonida frazeologik abstraksiya FI ma'nolari mo'l-ko'lligini oshirish tomon ishlaydi, asta – sekin uni oldindan anglashilgan ma'no bilan til belgisiga aylantiradi. Mana shu FI semantik integratsiyasining namoyon bo'lishidir, ya'ni til tizimi belgisi sifatida FI ma'nolari umumiy ilmi xarakterli bo'lgan rivojlanish davrining namoyon bo'lishidir.

Shunday qilib, misollarni ko'rib va tahlil qilib, shunday xulosaga keldikki, frazeologik abstraksiya bu FI belgi mo'l-ko'lligi hosil bo'lish jarayoni, chunki u FI

kontekstual mo'l-ko'lligini frazeologik mo'l-ko'llikka o'tkazadi, va FI ning pragmatik, semantik va sintaktik parametrlari shakllanadi. Bundan kelib chiqadiki, frazeologik abstraksiya natija hamdir, chunki frazeologik mo'l-ko'llikning ma'lum darajasiga etgach, FI til birligiga aylanadi. Uning tushunilishi (tiklanishi) til belgisi asosiy parametrlari anglanishi va mo'l-ko'lligiga bog'liq. Qayta tiklanish – turli murakkablik darajasidagi til birliklarining nutqda muntazam takrorlanishidir. FI ning nutqda tiklanishi – tilda ularning turg'un namoyon bo'lishi shaklidir, turg'unlik va uning qayta tiklanishi FI strukturasi barcha aspektlarini o'z ichiga oladi. Kuninning ta'rifiga ko'ra “frazelogizmlar tayyor shaklda shuning uchun ham tiklanadiki, ular turg'un shakllardir” [61:9]. Turg'unlik, til egalarining xotirasida shakl va mazmun stabil birligining saqlanishi uning qayta tiklanishini taqozo qiladi. O'z – o'zidan ma'lum bo'ladiki, FI (frazelogik intensivatorlar) ni turg'un birikmalar deb qarashga, tiklanish darajasiga ko'ra dastlabki qo'llanilishidan boshlab FI orqali o'tib, semiologik jarayonlar nisbiy tugallanganligi namoyon bo'lishi deb qarashga asos bor.

2.3. Turg'un birikmalilik FI ga o'tuvchi semiologik jarayonlar nisbiy tugallanganligining namoyon bo'lishi sifatida.

Frazelogik birlikning turg'unligi tushunchasi Kunin nazariyasining asosidir. Kunin uni besh darajani o'z ichiga olgan kompleks hodisa deb bilgan: ishlatilish turg'unligi, struktur-semantik darajadagi turg'unlik, to'liq turg'unlik yoki qisman qayta ma'noga ega bo'lgan turg'unlik, leksik tarkibning turg'unligi, sintaktik turg'unlik. Shunday qilib, “frazelogik turg'unlik – tayyor shaklda namoyon bo'lishni, barcha usul va okkasionalo'zgarishlarda o'xshashlikni shart qilib qo'yadigan frazeologik birlikning turli aspektlariga xos invariantlik hajmi” (61:46).

A.N. Baranov va D.O. Dobrovolskiy turg'unlik deganda bir qancha so'z birikmalarining uzallashishini tushunadilar [20].

Turg'unlikda ular struktur va usual aspektni ajratadilar. Struktur aspekt til ifodasining ichki qurilishi nuqtaiy-nazaridan ifodalanishini bildiradi.(Transformatsiya cheklanishi, paradigma defekti va boshq.). Uzual aspekt ifodaning til sotsiumi tomonidan qabul qilinishi, har xil til egalari tomonidan ifodaning takrorlanishini his etish. Baranov va Dobrovolskiy fikriga ko'ra, turg'unlikni quyidagicha parametrlar ko'rinishida tasavvur qilish mumkin: variantlar hosil bo'lishida cheklanish, muntazamlilikni paradigmalar defekti qarama-qarshiligida. Bu parametrlar har birining qo'llanishini FI turg'unligi tahlilida ko'rib chiqamiz, va turg'unlikning umumiy ko'rsatkichini topishga harakat qilamiz.Bu o'z navbatida til belgisining muhim xususiyati – belgi mo'l – ko'lligining shakllanishiga ta'sir qiladi.

FI larning mutlaqo ko'pchiligida variantlar hosil bo'lishida yoki leksik birlik tarkibida cheklanish qayd etilgan.Faqat ba'zi FI larda variantlar aniqlandi. Masalan, *like a clock, like one clock yoki likeclockwork* –охотно, точно,пунктуально, бажонидил, аниқ, жуда тез; *I'll eat my hat yoki I'll eat my boots* головудаянаотсечение, какпитьдать ... *like a house on fire yoki like house fire* – juda tez va hok. Mas.,

- 1.The Harlan girl wa talking **like a house fire**, and I think she was telling me the truth. (E. Gardner).
- 2."Toads are valuable animals", answers Jane. "They eat the snails **like one o'clock**" (M. Brandon)
- 3.And I'll bet you'll learn Italian **like a house on fire**. (W.S. Maugham, "The bread – Winner", p.164).
- 4.He would have tortured my poor toes ... and made them move **like clock work** in musical obedience (OED, vol.II p.511).
5. That day was written with a fountain – pen or **I'll eat my boots** (A. Christie "The murder at the Vicarage").
6. If it wasn't your brother who stole it, **I'll eat my hat** (DEI).

FI lar faqat variantlar hosil bo'lishida emas, o'z paradigmasida ham cheklangandir. (Kuninning morfologik turg'unligi). Har qanday FI alohida o'zgaruvchan so'zlar sifatida olinganda o'z komponentlariga morfologik munosabatda cheklangandir. FI ot komponentlariga songa aylanish uchun ta'qiq xosdir. Ichki shaklda qayd etilgan boshlang'ich situatsiyaning semiotik sharti va o'z navbatida bu FI lar ma'nosidagi semiotik shart ko'plik shaklini tushunishga yo'l qo'ymaydi. Ko'plik sonining yo'qligi (*I'll eat my hats, like hells, like lightnings yoki like shots*) FI semantik turg'unligining natijasidir.

Erkin so'z birikmalari turli sintaktik transformatsiyalar o'tkazishga izn beradi. Bunday transformatsiyalarga, masalan, otga izoh kiritish, fe'lli birikmada inkorning ko'rinishi, birikma komponentlaridan biriga tegishli aniqlovchi ergash gapning kiritilishi, passivning hosil bo'lishi kiradi. FI uchun komponentlar stabil tartibining namoyon bo'lishi sifatida sintaktik turg'unlikning yo'qori darajasi xarakterli. Biroq, misollar tahlilida FI komponentlarning olis joylashuvi holatlari aniqlandi. Bu turdagi misollarda bunday holatlar okkazional ko'rinish bilan cheklangan va FI ning alohida, ayri joylashuvi ko'rsatkichidir. FI ning alohida joylashuvi ko'rsatkichiga kiritilish, almashtirish, va uzilish kiradi. Tahlil jarayonida bir qancha kiritilish holatlariga misollar topishga muvaffaq bo'ldik.

1. "Evelyn and Dandy were going round in perfect harmony, the pony's little legs going **like oiled clock work**" (Ch. Dickens).

2. "At it they went **like five hundred houses on fire**" (OED, vol. IV, p. 241).

3. "It was as late **as all hell**" (J. Wain "Strike the Father Dead", p. 70).

Oiled komponentining *likeclockwork* FI siga kiritilishi; *five hundred houses* ning *like a house on fire* FI siga kiritilishi, *all* komponentining *as hell* FI siga kiritilishi ko'rsatadiki, FI komponentlari "o'z leksik ma'nosini yo'qotmagan so'zlar, o'zgaruvchan elementlar bilan birikmada nutqda aktuallashtiradigan so'zlardir" (61:73). Turg'unlik, tilda gapiruvchilar xotirasida shakl va mazmun birligining saqlanganligi uning tushunilishini, tiklanishini oson qiladi. Agar ifoda qandaydir sababga ko'ra

lug'at birligiga aylangan bo'lsa, u elementlar bo'yicha ishlanish mumkin bo'lmaydigan bir butun birlikka aylanadi. A.N. Baranov va D.O. Dobrovolskiy hisoblashadiki, bu birliklar leksikon birliklari sifatida, muloqot jarayonida qayta hosil bo'lishi kerak bo'lmagan bir butun birliklardir.[20]. Bu gapda A.D. Raixshtein tomonidan taklif qilingan frazeologiyada nomuntazamlik, (neregulyarnost) kuzatiladi. "Nomuntazamik bir tip mazmunli, bir tip strukturali bir qator til birliklar hosil bo'lishi, paydo bo'lishi mumkin bo'lgan qoidalarining yo'qligi bilan izohlanadi" [76:78]. Nomuntazamlik, avvalo FI hosil bo'ladigan modelni xarakterlaydi. Bunday FI lar hosil bo'ladigan model *like the devil, like hell, like a shot, like boots, as anything* va boshq. *like* va *as* bog'lovchilari bilan to'liqsiz komparativ oboroti modelini namoyon qiladi. Bu model, garchi muntazam bo'lsa-da, erkin so'z birikmalari paydo qiluvchidan farqli ravishda bir qadar uzual cheklangan materialda harakatlanadi va yangi FI larning erkin hosil bo'lishi uchun qoida bo'lib xizmat qila olmaydi.

Lekin yo'qorida tadqiqotimiz uchun ko'rib chiqilgan kiritmalar alohida tuzilganlik va turg'unlik muammolari bilan cheklanmaydi. Uning semantikasi ham muhimdir. Uch misolning barchasi FI ning bosh semantik xarakteristikasi – intensivlikni namoyon qiladi. Birinchi misolda uyg'unlik nafaqa soat mexanizmi bilan, balki yog'langan, yanada baland xossaga ega xususiyat bilan qiyoslanish orqali beriladi. Ikkinchi misolda intensivlik miqdor baho kiritilishi bilan erishiladi, bir uy emas, besh yuz uy yonadi. Nihoyat uchinchi misolda intensivlik *all* umumiyliigi bilan, shunchaki do'zax emas, butun, butunlay (do'zax) ma'nosi bilan qiyoslanish orqali beriladi. Bu – intensivlik ifodalanishining klassik usuli. Aniqki, FI statut xarakteristikasi aynan shunday turdagi prototip bilan semantik moslashuvchi kiritmaga ega. Shunday qilib, FI ning funksional-pragmatik dominanti uning illokutiv semantika vositasi vazifasini bajarishida ko'rinadi.

Ushbu bo'limda aytilgan fikrlarimizga xulosa qilib aytamizki, birinchidan, FI o'z rivojlanishida o'zining to'rtinchi, xulosalovchi bosqichiga etadi. Bunda ular til belgisi parametrlariga yaqin parametrlarga ega bo'ladi, ya'ni etarlicha mustaqil struktura va

mazmunga ega bo'ladi [47]. Ikkinchidan, frazem belgi sifatida FI rivojlanishining etakchi aspekti, bizning fikrimizcha, pragmatik aspekt. Frazeologik konfiguratsiyada material ifodasi FI kontekstining jamiillokutiv kuchidir.

Bob III. Kognitiv aspektda FI ning frazeologik mazmuni.

3.1.Frazeologik intensivlovchi ma'noni ta'riflashdagi kamchiliklar.

“Frazeologik ma'no” termini 1964 yilda bir-biridan mustaqil ravishda ikki muallif tomonidan taklif qilingan [6, 60]. Belgi ma'nosi haqida V.L. Arxangelskiy yozadi: “falsafa, mantiq, semiotika va lingvistikada belgi joylashgan ma'lum tizimlar orqali belgi ma'nosi muammolarini hal etish perspektiv yo'li nazarda tutilgan ekan, lingvistik va ekstralingvistik munosabatlar terminlarida frazeologik birlik ma'nosini aniqlash mumkin bo'lib tuyuladi, frazeologik birlikning o'zi bu munosabatlar a'zosi sifatida anglanmasligi kerak. Lingvistik munosabatlarni tasvirlashda olim denotat, yoki boshqa so'zlar bilan aytganda, tashqi dunyo predmetlari va bir sinfdagi barcha predmetlar tushunchasidan foydalanadi.

Denotator – FB denotatga nisbatan material qobig'i, designator – FB ning designatga nisbatan material qobiq. Designat deb Arxangelskiy tushuncha va tafakkur shaklidagi predmet haqidagi fikrni aytadi, ya'ni mazmunga ega ichki dunyodagi barcha narsa, o'zining bo'lingan holda aytilishini taqozo qiladi. Arxangelskiy konsepsiyasiga ko'ra, lingvistik munosabatlardan keyin ekstralingvistik munosabatlar keladi. Denotativ va designativ munosabatlarga bo'linadi. O'z – o'zidan atrofadgi sodir bo'layotgan hodisalar boshqa xarakterdagi belgi axborotiga o'zgaradi,

sub'ektning "ichki olami"dagi voqealar ham. Bularning hammasi alophida turdagi belgili frazeologik birlikka tegishli. Bu tezis ko'p frazeologlar tomonidan qabul qilingan va frazeologik ma'no muammolarini intensiv va chuqur o'rganishga undash vazifasini o'tagan.

V.V. Vinogradov maktabining ko'pchilik frazeologlari idiomalar va erkin so'z birikmalari ma'nosini solishtirishdan kelib chiqadilar. Bunday yondashuvda erkin so'z birikmasi va ma'nosi o'zgargan birikma o'rtasidagi leksik – grammatik tarkibiga ko'ra to'g'ri keladigan ikki mohiyat o'rtasidagi mazmuniy farq tiklanadi. Bu tafovut ma'no deb qaraladi. Boshqa so'zlar bilan aytganda, mazmun plani bilan operatsiya idiomalar komponenti bo'lgan so'zlar va so'zlar ma'nolari – erkin birikmali so'z birikmalari komponentlarini qiyoslash orqali bajariladi. Idiomalar mazmuniy rejasi spesifikasini aniqlash esa, butunlay va to'liq bu komponentlarni aniqlash, manipulyatsiya qilishga bog'liq.

Frazeologiyada erkin so'z birikmadan erkin bo'lmagan, turg'un birikmaga o'tish g'oyasini qabul qilgan tadqiqotchilardan biri V.P. Jukovdir [45]. Jukov tomonidan Sh. Balli identifikatsiya metodiga ko'p tomondan o'xshash bo'lgan applikatsiya metodi taklif qilingan, lekin "so'zma-so'z" emas, balki "ma'no" bo'yicha. V.P. Jukovning applikativ modeli idiomaning definitsiyasini (izohini) uning so'zma-so'z ma'nosiga qo'yish prosedurasidir. Bunday solishtirish fonida frazeologizm komponentlari so'zning kategorial xususiyatini yo'qotadimi, yoki yo'qmi, shu narsa aniqlanadi.

Bu metod leksikologiyada ishlab chiqilgan ma'noning komponent tahlili va frazeologiyaga kirib kelgan struktur tahlil metodiga to'g'ri keladi. Komponent tahlil imkoniyatlari cheklangan. V.N. Teliya fikriga ko'ra, applikativ metod frazeologik ma'noni tadqiq qilish apparati haqida osonlashtirilgan tasavvur beradi. Bu frazeologiya postklassik davrining muhim kamchiligidir [73]. Ma'lum bo'ldiki, frazeologik ma'no komponent tahlili idiomalar ma'nosi spesifikasi nimada, degan savolga javob bermaydi. Frazeologik ma'no spesifikasini aniqlash murakkab vazifasi A.V. Kuninning kompleks yondashuvi asosida hal qilindi. U va uning shogirdlari

tadqiq qilishib, frazeologik ma'no spesifikasini ochib, ob'ektni uning taksonomiyasida to'liq tasvirlashdi.

Frazeologik ma'no spesifikasi frazeologizmga xos bo'lgan asosiy qarama – qarshilik – man'o butunligi va FB da so'zlarga xos bo'lmagan turli assimetriyalarning borligi bilan bog'liq ravishda birliklarning ayri, alohida joylashganligi o'rtasidagi farq, strukturalarning murakkabligi bilan izohlanadi. Frazeologik ma'no ta'rifining asosiga “axborot invarianti” tushunchasi qo'yilgan. I.S. Narskiy buni “...axborot hosil bo'lishida turg'un saqlanadigan (birlik)” deb tushunadi [83:39]. Frazeologik butun ma'no va idiomatik ma'no Kuninning fikricha, axborot invariantini tashkil qiladi. Ko'pchilik frazeologlar frazeologik ma'no tahlilining muhim aspekti “denotatlarning real yoki tasavvuriy belgilarini ifodalaydigan ma'no mikroelementlari sifatida” tushuniladigan semalarning ajralishidir, deb hisoblaydilar [61:187]. Ushbu nazariyaga ko'ra FB da semalarning butun bir kompleksi jamlangan.

V.G. Gak hisoblaydiki, bu semalar ma'lum bir munosabatlar bilan bog'langan: arxisemalar (rod ma'noli umumiy semalar), differensial semalar, va ifodalanayotgan ob'ektning yordamchi xarakteristikasini aks ettiruvchi potensial semalar [29]. I.A. Sternin tomonidan batafsilroq semalar tasnifi ishlab chiqilgan, bunda doimiy yoki doimiy shart bo'lmagan belgilar nuqtaiy- nazaridan yadro va periferiy semalar ajratiladi [74]. Strenin tasnifiga ko'ra kuchaytiruvchi leksik birliklar ma'nosida intensivlik semasi yadro semadir. Intensivlik semasi fikrlari E.I. Sheigal, va I.I. Turanskiy ishlarida ham yoritiladi [66, 68]. Sheigal intensifikatorlar ma'nosini tashkil etuvchi sifatida intensivlikni “ichki intensivlik” deb, Turanskiy “intensema” deb ataydi va bu tushunchani kiritadi. “Intensema” deb u ekspressivlik darajasini kuchaytiradigan, kamaytiradigan har qanday til manifestatsiyasini, ko'rinishini tushunadi.

V.G. Gak tasnifi universaldir. U til bilangina emas, inson fikri bilan ham bog'langan. Bundan tashqari FB mazmun rejasini batafsil namoyon qiladi. Lekin yondashuvning o'zi bir qator kamchiliklarga ega. Birinchidan, ma'nodagi u yoki bu semalar ajratiladigan prinsiplar juda sub'ektiv va noaniq. Ikkinchidan, ma'noni sema

ko'rinishi shunchaki ma'nolarni sanashning oddiy protsedurasi bo'lib qolmay, so'z yoki FB ma'nosidagi semantik elementlar uchun ma'no kategoriyasini tiklash kerak. Eng chuqur ma'noli semalarni ajratish mumkin bo'lgan qoidalarni ishlab chiqish hozircha amalga oshmayapti.

D.O. Dobrovolskiy va Yu. N. Karaulov aytishicha, buni faqat intuitiv qilish mumkin. Bundan tashqari, ma'no strukturasini sema tasavvur qilish faqat vertikal bog'lanishlarni aniqlaydi, til egasi ongida esa sintagmatik bog'lanishlar ustun bo'ladi. Bu ziddiyat abstrakt mohiyat sifatida atomistik yondashuv bilan izohlanadi. V. fon Gumbolt tilni kishining ichki olami va tashqi borliq o'rtasidagi olam deb tushungan. "Til hosil bo'lishi to'liq ichki va to'liq tashqi olam bo'lmagan, tilning umumiy vazifasiga muvofiq idealni yaratishda sub'ektivlikni ob'ektivlik bilan qo'shgan, tashqi taasurotlar va ichki his-tuyg'ular o'zaro ta'siri natijasida kelib chiqadi" [38 : 123].

"Atomistik" yondashuv doirasida FI ma'nolarini tasvirlash psixologik eallikni ifodalamaydi. Idiomatikaning sub'ektga yo'nalganligi bu til birliklarining ma'nolarini olamning "ilmiy" nuqtaiy-nazardan tasvirlashga imkon bermaydi, til strukturasini sema tasavvuri esa aynan unga yo'nalgan. **Kognitiv semantika** u yoki bu ma'no nega yoki qanday kelib chiqqanligi savoliga javob berishni o'z zimmasiga oladi.

3.2. Frazelogik intensifikatsiyalovchi ma'no tilda bilimlarni konseptual tashkil etish nuqtaiy – nazaridan qaralganda

Yo'qorida aytilganidek, FI frazeologik turg'un birikma xususiyatiga ega bo'lganda til belgisiga aylanadi. Struktural paradigmada til belgilari konvensiya asosida ifodalovchi va ifodalanuvchi o'rtasidagi (motivlanmagan) erkin aloqani tiklaydigan belgilar sifatida tushuntiriladi. Biroq, til belgisining "ifodalovchi" funksiyasi ularning tashqi olam bilan to'g'ridan-to'g'ri muvofiq kelishi bilan emas, bilimlar asosini tashkil qiluvchi inson tajribasi bilan muvofiq kelishidan kelib chiqadi. [55:6].

Kravchenko fikricha, til tizimini tashkil etuvchi birliklarning bir qismini olam haqidagi bilimlar tashkil etadi [55]. Insonning bilish faoliyati natijasida bilimlar hosil bo'ladi. Uning ongida ob'ektiv olam korrelyati – ideal olam shakllanadi. Tushunchalar va ularning munosabatlari shaklidagi bu ideal olam “olam kartinasini” yoxud dunyoning konseptual kartinasini tashkil etadi. Bunda insonni o'rab turgan dunyo aks etadi va qonuniyatlari anglanadi [54]. Belgi “ostiga” FI ma'nosini til belgisi sifatida ko'rsatuvchi qanday konseptual yoki kognitiv birikma kiritilgan. Dunyo haqidagi bilimlar oqimidan ushbu belgi bilan qanday axborot kvanti ajratib olingan. Bularning barchasini hisobga olgan holda, FI ma'nosi muammolari bilimlarni namoyon eta oluvchi rolida, yoki bilimlarni saqlash, qayd etish va ifodalash vositasi sifatida chiqa olish qobiliyati aspektida ko'rish xulosasiga olib keladi.

Bilimlar muammosini ko'rishda bir qator savollar kelib chiqadi. Bular qatoriga bilimlar mohiyati haqidagi, ularning spesifikasi, ularning turi, tasniflash nuchun asoslari, inson xotirasida bilimlar namoyon bo'lishining shakllari, va ularning optimal qo'llanilishini uyushtirish, bilimlarni saqlash xususiyatlari, nitqiy faoliyatda ularga tayanish masalalari kiradi.

Adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, bilim til va til bo'lmagan bilimlarga bo'linadi. Ba'zi mualliflar bu bo'linish bilan cheklanmay, u yoki bu bo'linish ostida nima yotganligini aniqlashga harakat qilishgan. V.I. Gerasimov va V.V. Petrov til bilimlariga

- Fonetika va fonologiya bilan grammatik bilimlari;
- Kompozitsional va leksik semantika bilimlari;
- Til qo'llanilishi bilimlari;
- Nutqiy muloqot prinsiplari bilimlari turlarini kiritishadi.

Til bo'lmagan bilimlarga ular situatsiya konteksti haqidagi bilimlar, umumiy fandagi bilimlar (umumiy bilimlar) ni kiritishadi [33:7]. Tadqiqotchilar haqqoniy ko'rsatishganidek, bilimlarning hech bir turi etakchi emas. P.B. Parshin bilimlarni

uch parametr bilan tasniflaydi: situativ va situativ bo'lmagan bilimlar; ensiklopedik bilimlar (olam haqidagi bilimlar). Bular lingvistik va lingvistik bo'lmagan bilimlar hamda kommunikativ bilimlar bo'lishi mumkin. Bilimlar namoyon bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qiladigan bilimlar.

Bilimlar namoyon bo'lish shakllarini aniqlash biz uchun alohida qiziqish uyg'otadi. Tilshunoslikda bilimlar amorf shaklda emas, ular tashkiliy tuzilgan degan fikr mavjud. E.S. Kubryakova qayd etadiki, "bilimlarni tashkil etishda til bilan bevosita bog'liq, "tilga aylangan" yoki til yordamida berilgan strukturalarni, yoki til bilan bevosita bog'liq bo'lmagan strukturalarni ajratish kerak. ...Tilshunoslik birinchi navbatda til bilan u yoki bu holda bog'liq namoyon bo'lish shakllarini aniqlash masalasini qo'yishga imkon beradi" [56:27]. Dem'yankov hisoblashicha, bilimning mental namoyon bo'lishi qanday va bu bilimning "kognitiv" ishlanishi qanday bo'lishi kerakligi muhim [42]. Hozirgi vaqtda tilshunoslikdagi ishlarda olam haqidagi til bilimlariga bir qancha yondashuvlar bor. Ularning har biri kishilarning, til egalarining ijtimoiy – madaniy tajribasi bilan bog'liq. Bilimlarni namoyon qilish shakllari quyidagilarni o'z ichiga oladi: "*freymlar*" [85, 71], "*sxemalar*" [90], "*stsenariyalar*" [20, 91], "*protopiplar*", [94, 28], "*stsenalar*" [71], "*situatsiya modellari*" [40]. Bularning hammasi uchun umumiysi shuki, bu terminlar bilan ataladigan bilim strukturalari xotirada saqlanadigan yoki kerak bo'lganda uning komponentlari xotirasidan tuziladigan va standart situatsiyalarni adekvat qayta ishlashni ta'minlaydigan xabarlar paketini namoyon qiladi [33].

Biz bu tushunchalarni atroflicha tahlil qilib o'tirmaymiz, biz faqat "freym – stsenariy" va "protopip" tushunchasini ko'rib o'tamiz, chunki gapiruvchi va tinglovchining ensiklopedik bilimini aks ettirishda, FI ma'nolarining hosil bo'lishida bu tushunchalarning roli katta. Aytish mumkinki, FI ma'nosiga **freym** va **protopip** semantikasi asosida yondashuv an'anaviy yondashuvdan ko'ra ensiklopedikroqdir. **Aynan ular kishilar o'rtasidagi muloqot va o'zaro tushunishga imkon beradi, aynan bu strukturalarda til egalari FI bo'lgan bilimlar namoyon qilinadigan konseptual bazani tashkil qiladi.** "Tilshunoslik

kognitiv fan uchun o'z shakllarinining ma'nosi haqidagi ma'lumotlarni o'ylab ko'rish uchun ham muhim. Bu yerda bilimlar va ma'nolarni solishtirish boshlanadi. ” [57:45]. Bilimlar va ma'nolarni solishtirish tadqiqotiga bunday yondashuv misoli sifatida idiomalarning haqiqiy ma'nolarini konseptual modellash nazariyasini aytish mumkin. Bularni bir qancha FI ma'nolarining tahlilida qo'lladik. Nazariya asosida frazeologik birliklarni freym tasvirlash yotadi. Bu nazariya tarafdorlari A.N. Baranova, D.O. Dobrovolskiy qarashlariga ko'ra, idiomatik ma'no shakllanishining manbasi sifatida so'z – komponentlar emas, ularga bog'liq “freym – stsenaialar” kelib chiqadi [20].

Kognitivistlar bilimlar freymlar shaklida joylangan degan fikrga kela boshlaganlaridan keyin tilshunoslikda ham navbatdagi qadamni tashlashga to'g'ri keldi, ya'ni til shaklida 'ifodalanganda' aynan denotat 'fikir' va referentni 'muvofiglaydigan, solishtiradigan' mohiyatdir [73]. Garchi, Teliyaning fikricha, bunday qadam hali qo'yilmagan bo'lsa-da, lekin belgi munosabatida, “ifodalovchi – ifodalanuvchi” munosabatida tilshunoslar tomonidan shunday tushuncha berildiki, bu na an'anaviy tushuncha, na gapiruvchi va tinglovchi uchun konkret situatsiyagi fikir. Bu mohiyat ifodalanuvchi (uning protopipi) haqidagi umumiy (tipovoy) tasavvur. **U. Cheyfga ko'ra, protopip mental, aqliy hosil bo'lish, tipik narsa haqida bizning tasavvurimizdir [90]. A. Vejbitskaya ham shu fikrni quvvatlaydi. U hisoblaydiki, “chashka – piyola” tipidagi so'zni tasvirlab, ob'ektning o'zini emas, tipik chashka haqidagi bizning tasavvurimizni tasvirlash kerak [26]. R. Langaker aks etayotgan olam tuzilishidagi jarayonlar umumiyliги tufayli bizning tasavvurlarimiz bir qadar o'xshash bo'lsa-da, ular baribir individualdir, deydi. Uning ishonchi komilki, semantika uchun real dunyoning o'zi emas, bizning real dunyo haqidagi tasavvurimiz ahamiyatga ega [92]. So'zlar ma'nosida jamlangan konseptual axborot aytilayotgan ob'ektlar haqidagi mavjud bilimlarning tahlili natijasidir.**

Shunday qilib, protopiplar ob'ekt haqidagi bizning tasavvurlarimizning muhim konseptual xususiyatini ifodalaydi. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, FI lar orasida semantik strukturasi elementi protopip semantikasi nazariyasiga muvofiq protopip

ma'nosidir. Idiomalar protopipiga tayanish bildiradiki, FI ma'nosida intensivlik semasi emas, uning asosida yotgan protopip ajratiladi. Bunday FI larga *like mad, like crazy, like a shot, like lightning, like a dose of salts, like one o'clock, like the devil, as the devil* idiomalarini kiritish mumkin. Bunday FI lar ma'nosi protopip ma'nosining metaforik ma'no o'zgarishi natijasida hosil bo'ladi.

Frazeologik birlik ma'nosining protopip ma'nosi bilan derivatsion aloqasini A.V. Kunin ham ko'rsatib o'tgan edi. Olim ta'kidlaydiki, bu aloqa frazeologik birlik ichki shaklini tashkil etadi [61:173].

Shu bilan birga, FI protopiplari faqat til birliklari va o'zgaruvchan so'z birikmalari emas, balki turli xil assosiativ munosabatlar hamdir, ya'ni tarixiy an'analar, faktlar, realiyalar, diniy e'tiqodlar va ularning atributlari bilan bog'liq umumiy bilimlar fondidir [61:51]. Protopip kategoriya hosil qiluvchi gnoseologik kenglik markazida, kategorial ma'nolar protopipdan bashorat qilinadi. "Protopipdan implitsit (yashirin) yangi ma'noga o'tishni oldindan ko'rish mumkin. Yangi ma'nolarga harakat texnologik intensivlikka ega, ular inkluziv va har ir alohida olingan lahzada o'zaro aniqlangandir [47:264].

3.3.FI ma'nolariga freym yondashuv.

Zamonaviy tasavvurlarga ko'ra, insonning dunyo haqidagi bilimlari freymlar yig'indisini namoyon qiladi. Bizning dunyo haqidagi bilimlarimiz til bo'yicha bilimlarning ma'lum bir stsenariyalari asosida shakllanadi va stsenariylar (freymlar) ning rasmiy to'ldirilishi sifatida tasvirlanadi. "Murakkab freym – bilimlar va amaliyotning negizi, har qanday alohida so'zlar bilan berilgan umumiy obraz asosi, bir-biri bilan uzviy bo'g'langan so'zlarni tushunish qobiliyatimizni tashkil etadigan zaruriy shartdir' [71:61]. M. Minskiy "freym"ni bilimlarni til va til bo'lmagan xarakterdagi bilimlar sifatida namoyon bo'lishga xizmat qiladigan ma'lumotlar strukturasiga to'g'ri keladigan tushuncha deb hisoblovchilar qatoriga kiradi [85].

Freym tasvirlash g'oyalari shunga olib keldiki, hozirgi vaqtda bu tushuncha faqat standart situatsiyalar uchungina qo'llanilmayapti. Freymlar kamroq yoki

ko'proq umumlashgan konseptlarni namoyon etadigan insonning konseptual tizimi deb qaralmoqda. "Freymlar bilimlarning beixtiyor ajratilgan "bo'lak"lari emas. Birinchidan, ular ba'zi konseptlar "atrofi"da uyushgan birliklardir. Lekin oddiy assosiyatsiyalar, bog'lanishlar to'plamiga qarama-qarshi ravishda bu birliklar u yoki bu konsept bilan bog'langan tipik va potensial mumkin bo'lgan axborotni o'z ichiga oladi" [40:16-17]. Boshqa so'zlar bilan aytganda, freymlar deklarativ va tartiblangan, mo'ljallangan bilimli konseptual strukturalardir. Freymlarga deklarativ va tartiblangan mo'ljalli bilimlar sifatida yondashuv A.N. Baranov va D.O. Dobrovolskiyning idiomalar aktual ma'nosini konseptual modellash nazariyasi asosida vujudga kelgan [20].

Bu nazariyaga muvofiq, har qanday FI ostida o'z abstrakt konseptual strukturasini – freymi bor, unga ko'ra insonning borliq haqidagi bilimlari zahirasi yaratiladi va FI ma'nolari hosil bo'lishi bir denotatdan boshqasiga o'tishi va bir ma'noning boshqalaridan hosil bo'lishi bilan bog'liq emas, balki konseptual strukturalarda vujudga kelishning butun bir kompleksi bilan bog'liq. Freymni tashkil etuvchilar har bir konkret holatda turli xil ma'lumotlar bilan to'ldirilishi mumkin bo'lgan slotlar shaklida ko'rinishi mumkin. Masalan, aksional freym tuzilishi quyidagi slotlar (yacheykalar) bilan tashkil topadi: 1. freym nomi; 2. harakat vaqti; 3. harakat etaplari (bosqichlari); 4. harakat joyi (o'rni); 5. harakat natijasi; 6. oqibatlar (nazarda tutilmagan, kutilmagannatijalar); 7. harakat instrumenti; 8. harakat materiali; 9. harakat mazmuni (protsedurasi); 10. harakat ob'ekti; 11. harakat sub'ekti; 12. harakat xarakteristikasi, tasnifi [20:417]. Freym va slotlarda konseptual hosil bo'lishlar natijasida idiomalar yangi ma'nolarining shakllanishi yuz beradi.

Bunday konseptual tashkil bo'lishlar natijasida FI frazeologik intensivifikatorlar ma'nolari intensivligi shakllanishini ko'rib chiqamiz. Masalan, *to beat the band* (adab. *to drown the noise made by the band*) – *with great force, vigorously* FI ma'nosi "orkestr bilan ijro etilayotgan musiqani o'chirish" boshlang'ich aksional freymini qisqartirish natijasi sifatida uning harakat xarakteristikasi *with great force* slotigacha tasvirlanishi mumkin. Intensivlikning kategorial belgisi sifatida belgining, holatning,

jarayonning (protsessning) miqdor xarakteristikasi ko'rinadi. Bizning misolda *to beat vigorously, with great force* predikati bilan ifodalangan harakatning miqdor xarakteristikasi haqida gapirishimiz mumkin.

Like a house on fire, (lit. as fast as a house would burn) – very fast or vigorously (FI) frazeologik intensivifikatori shunday yo'l bilan shakllanadi. Bu FI ning ichki formasi "o'xshash" boshlang'ich freymi ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin. B o'z navbatida like konsepti bilan beriladi. "concept of similarity" [28] "a house on fire" stsenariysini o'z ichiga oladi. "olov, o't" konsepti komponentlaridan biri A. Vejbitskayaning protopiplar nazariyasiga muvofiq "o't, olov" – bu voqea yoki jarayon ekanligini ko'rsatadi [28:224]. Boshqa komponent esa, " bu jarayonda mavjud bo'lgan hamma narsa kulga aylanadi, ya'ni juda tez yonib tamom bo'ladi" kabi bilimlarimizni o'z ichiga oladi (28:224). Shunday qilib, bu idiomaning ma'nosi "o'xshash" boshlang'ich freymining "uy o't ichida", ya'ni "uy yonayapti" stsenariysi bilan *very fast*, yoki *vigorously* harakat xarakteristikasi slotigacha qisqarishi natijasida shakllanadi.

FI dagi intensivlik ma'nosi boshlang'ich freym va kiritilgan slotdagi qisman semantik qarama-qarshiliklar o'rin almashishi natijasida kelib chiqadi. Bu ma'lum bir axborotning yo'qori konsentratsiyasiga olib keladi va intensivlikning asosi hisoblanadi [47]. Masalan, "*I'll eat my hat*" (*as strong as severation*) – *kak pit dat, ..., golovu dayu na otsecheniye, t.y. sil'no ruchayus* FI intensiv ma'nosi boshidan ushbu freymga tegishli bo'lmagan "ovqatni qabul qilish" boshlang'ich freymidan "harakat ob'ekti" – *hat* slotiga e'tiborni qaratish natijasida kelib chiqqan. Kiritilgan slotning boshlang'ich freym bilan nomuvofiqligi intensivlikning asosi bo'lgan semantik qarama-qarshilikning paydo bo'lishiga olib keladi. Kelib chiqadiki, bu FI ma'nosi freym ichidagi slotlararo munosabatlarning qisman hosilasidir. Qayd etishimiz kerakki, ushbu FI ma'nosining hosil bo'lishi vizual obrazga emas, boshlang'ich nuqtasi FIning so'zma-so'z o'qilishi bo'lgan "oddiy, обыденный" bilimlar ustidan kompleks operatsiyalarga asoslangan. Semantik nuqtaiy-nazardan inglizcha gapiruvchilar qaysi shlyapani nazarda tutayotganligi butunlay mazmunsiz. Muhimi

shlyapaning ovqat uchun yaroqsiz predmet ekanligi haqidagi bilimdir. Frazologik intensifikator bilan faollashib, bu bilim tabiiy til xulosasi uchun kognitiv asos bo'lib xizmat qiladi va ushbu til belgisi mazmuni rejasiga kiradi. So'ngida bunday belgi "toza" ifoda uchun yoki fikrning illokutiv funksiyasi uchun optimal bo'ladi.

Shunday qilib, FI belgi xususiyati spesifikasi shundaki, eng avvalo, belgi leksikasi bilan namoyon bo'lgan leksik intensifikatorlar ma'nosida farqli ravishda, tor referent ma'nosi uchun to'liq freym bilan emas, faqat uning slotiga mos keladi. FI ma'nosi to'liq situatsiya bilan, freym bilan mos keladi.

Oldindan aytib bo'lmas freymlar aro va slotlar aro aloqalarning hosil bo'lishi kalitli metaforalarga asoslangan analogiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. "Bunday analogiyalar ba'zan qandaydir predmet yoki g'oyani boshqa predmet yoki g'oya "dunyosi"da ko'rishga imkon berganday bo'ladi. Bu bir sohada to'plangan bilim va tajribani boshqa sohadagi muammoni hal etishga yordam beradi. Aynan shu tarzda bir ilmiy paradigmadan boshqa paradigmaga bilimlarni yoyish amalga oshadi" [86:291].

Kalitli metaforalar borliqning bir fragmenti obrazini boshqa bir fragmentiga o'tkazadi, qo'shimcha qiladi. Ular allaqachon o'rnatilgan tushunchalar tizimi bilan analogiya bo'yicha uning konseptuallashtirishini ta'minlaydi. Tushunamizki, FI ma'nosi hosil bo'lishi asosida "metaforik ijodkorlik akti" yotadi, uni o'rganish so'z ma'nosi kelib chiqadigan xom ashyoni "ko'rishga imkon beradi". Metafora ... xom ashyoni qayta ishlash jarayoni, bilimlar, baho va emotsiyani tasavvur qilishdan til belgisiga aylantirish yo'lidagi etap, bosqichdir" [11:370]. Bizning holatimizda esa, FI ma'nosiga aylantirish bosqichidir.

3.4. Metafora - FI ma'nosi hosil qilish usuli

O'tkazilgan til materiali tahlili guvohlik beradiki, FI ma'nolari o'z prototiplari ma'nosidan metaforik ma'no o'zgarishi natijasida yasaladi. Ushbu bo'limning vazifasi metaforani harakatda ko'rsatish, ya'ni FI intensifikatsiyalovchi mazmunini shakllanishga olib keluvchi metaforlashtirish mexanizmini ochishdir.

Ma'lumki, metafora termini ikki ma'noda ishlatiladi: natija sifatida va kam hollarda jarayon sifatida. Keyingi aspekt ongning kognitiv faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Tadqiqotimizda ham metaforlashtirishning asosiy qonuniyatlarini, metaforaga xos bo'lgan mexanizmlar harakatini tiklashga urinib ko'ramiz. So'ngi o'n yilliklarda metaforani o'rganishda og'irlik markazi nazmiy metaforani o'rgangan va tahlil qilgan filologiyadan tafakkur, bilish va anglashga yo'nalgan amaliy nutqni o'rganish sohasiga, konseptual strukturalarga, sun'iy intellektni modellashga ko'chirildi. Tafakkur asoslarini tushunish kaliti va hosil bo'lish jarayonlari kalitini metaforada ko'ra boshladilar. Metafora bir tomondan mantiq bilan, ikkinchi tomondan mifologiya bilan bog'liqlikni mustahkamladi.

Turli yo'nalishdagi tilshunoslar metaforaning kognitiv nazariyasini yaratishga harakat qildilar. V.V. Vinogradov, A.A. Potebnya, N.D. Arutyunova, V.N. Teliya va chet el tilshunoslari E. Kassirer, X. Ortega -i- Gasset, J. Serl, J. Lakoff, M. Jonson shular jumlasidan.

J. Lakoff va M. Jonson nazariyasi metaforani borliqni konseptuallash vositasi deb taqdim etadi. Bu nazariya yaratuvchilarining fikriga ko'ra metaforaning mohiyati bir tushuncha ba'zi aspektlarining boshqa tushuncha terminlarida qayta ma'no kasb etishidir. "Metafora bizning butun kundalik hayotimizga kirib keladi va faqat tilda emas, tafakkur va harakatda ham namoyon bo'ladi [88:387]. Chunki bizning tushuncha tizimimiz ham metaforikdir. Ortega - i - Gasset metaforani tafakkurning zaruriy quroli sifatida qayd etadi. Uning yordamida biz konseptual maydonimizning eng olis hududlariga etishga muvaffaq bo'lamiz [89].

Bularning barini hisobga olib, aytishimiz mumkin, metaforlashish ko'rsatilgan mohiyat va ular bilan operatsiyalarning shunday o'zaro ta'siriki, bular olam haqida yangi bilimlar olishga olib keladi va bu bilimlarni tilga aylantiradi. "Metaforlashish allaqachon anglangan va atalgan ob'ekt haqidagi bilimlarni yangi konseptga mustahkamlash, ma'nosi o'zgargan so'zlarda aks etadi, bu so'zlar metaforik ma'noda iz qoldiradi, va til bilan ifodalangan dunyo kartinasiga "singib ketadi" [73:136].

